

ZAMONAVIY SHE'RIYATDA MAZMUN YANGILANISHI VA SHAHARLASHUV NAZARIYASI

Sarabay Muazzamxon Javlon qizi,

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
4-bosqich talabasi*

Email: muazzambahadirova4@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy o'zbek she'riyatida mazmun yangilanishi masalasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda istiqlol davri she'riyati, xususan, yosh ijodkorlar ijodi asosida poetik tafakkurdagi o'zgarishlar o'rganildi. Tahlil jarayonida qiyosiy, tavsifiy va interpretatsion metodlardan foydalanildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy she'riyatda inson ruhiyati, ekzistensial kechinmalar, shaharlashuv va ekologik muammolar yetakchi mavzularga aylangan. Shuningdek, modernistik ifoda vositalari, ramziy obrazlar va erkin shakl ustuvorlik qilmoqda.

Kalit so'zlar: zamonaviy she'riyat, yosh shoirlar, mazmun yangilanishi, modernizm, shaharlashuv, ekzistensializm, ekoshe'r, ruhiyat.

Аннотация. В данной статье рассматривается проблема обновления содержания современной узбекской поэзии. В исследовании на основе поэзии периода независимости, в частности творчества молодых поэтов, анализируются изменения поэтического мышления. В процессе анализа использованы сравнительный, описательный и интерпретационный методы. Результаты показывают, что в современной поэзии ведущими темами становятся внутренний мир человека, экзистенциальные переживания, урбанизация и экологические проблемы.

Ключевые слова: современная поэзия, молодые поэты, обновление содержания, модернизм, урбанизация, психология (внутренний мир человека).

Abstract. This article examines the issue of content renewal in modern Uzbek poetry. The study analyzes transformations in poetic thinking based on independence-period poetry, particularly the works of young poets. Comparative, descriptive, and interpretative methods were employed in the research. The findings indicate that themes such as human inner world, existential experiences, urbanization, and ecological issues have become dominant in contemporary poetry.

Keywords: modern poetry, young poets, content renewal, modernism, urbanization, existentialism, eco-poetry, human psyche.

Kirish. Zamonaviy o'zbek she'riyati bugungi adabiy jarayonning eng faol va yangilanishga moyil qatlamlaridan biri hisoblanadi. Istiqlol davridan boshlab milliy adabiyotda shakl va mazmun uyg'unligi yangi bosqichga ko'tarilib, poetik tafakkurda sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Xususan, she'riyatda insonning ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari, erkin fikr va individual qarashlarning ifodasi kuchaydi. Mazkur maqolada zamonaviy o'zbek she'riyatida mazmun yangilanishi masalasi tadqiq etilib, uning asosiy yo'nalishlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, bugungi she'riyatda kuzatilayotgan modernistik tendensiyalar, yangi mavzular va badiiy izlanishlar adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan tizimli o'rganishni talab etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Zamonaviy o'zbek she'riyatida mazmun yangilanishi masalasi adabiyotshunoslikda muhim yo'nalishlardan biri sifatida o'rganilmoqda. Ulug'bek Hamdam tadqiqotlarida bugungi she'riyat erkin badiiy tafakkur mahsuli sifatida talqin qilinib, unda an'anaviylik va yangilanish uyg'unligi kuzatilishi ta'kidlanadi. Bir qator yosh shoirlarning to'plalaridan nazariy ma'lumot uchun misollar

olindi Mazkur tadqiqotda zamonaviy o‘zbek she‘riyatida mazmun yangilanishini o‘rganish uchun bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Jumladan, qiyosiy-tahliliy metod yordamida turli davr shoirlari ijodi o‘zaro solishtirildi va ularning mazmun jihatidagi farqlari aniqlandi. Tadqiqotning empirik manbasi sifatida istiqlool davri she‘riyati hamda zamonaviy yosh shoirlar – Shahriyor Shavkat, Mehrinoz Abbosova, Suhrob Ziyo va boshqa ijodkorlar asarlari tanlab olindi. Ushbu yondashuv zamonaviy poetik jarayondagi mazmuniy yangilanishlarni tizimli ravishda ochib berishga xizmat qildi.

Tahlillar va natijalar. “Hech bir mubolag‘asiz ta‘kidlash joizki, bugun biz baquvvat o‘zbek she‘riyatiga egamiz. She‘riyat Sharqda asrlar davomida adabiyotning asosiy turi sifatida yashagani boisi ham uning ildizlari bag‘oyat teran. Ammo bugungi o‘zbek she‘riyati kechagi she‘riyat emas, balki o‘zining ko‘pgina, xususan, shakliy-mazmuniy mundarijasiga ko‘ra yangilangan poeziyadir”[1].

Yangilangan she‘riyat haqida Ulug‘bek Hamdam shunday deydi: “Yangilangan adabiyot ozod tafakkur mevasi o‘laroq maydonga tusha boshladi. Ammo u yo‘q yerdan paydo bo‘lmadi. Cho‘lpon XX asr avvalida “bir xil, bir xil... ko‘ngil yangilik qidiradir” deganidayoq yangilikka intilish tug‘ilib bo‘lgandi. Shu ma‘noda muayyan an‘ana, tajriba bor edi. Demak, istiqlool davri yangi o‘zbek asarlarining asosiylari, albatta, an‘anadan uzilgan g‘uddalar emas, aksincha, o‘sha silsilaning davomi o‘laroq dunyoga keldi, kelmoqda” [2, B.14].

Zamonaviy she‘riyatda mazmun yangilanishi masalasini o‘rganishda yosh ijodkorlarning she‘rlari muhim manbalardan biri hisoblandi. Yosh shoirlar deganda hozir internet olamida mashhur va muntazam ijod qilib kelayotgan ijodkorlarning she‘rlarini asos qilib oldik. Jumladan, Shahriyor Shavkat, Mehrinoz Abbosova, Madina Norchayeva, Suhrob Ziyo, Nurmuhammad Abduzoir, Xurshid Abdurashid kabi yoshlar zamonaviy o‘zbek shoir va shoirlari sirasida ko‘zga ko‘ringan va ustoz shoirlarning nazariga tushgan namoyondalardandir. Yangi avlod shoirlari she‘riyatga yangi mavzular, yangi ruh va yangi badiiy qarashlarni olib kirishmoqda. Umuman olganda, zamonaviy she‘riyatda ilgari kam yoritilgan shaharlashuv, ekoshe‘r, ekzistensializm, egosentrizm kabi yangi mavzular paydo bo‘lmoqda va zamonaviy shoirlar poetik tajriba, yangi ifoda vositalari va ramziy tasvirlar orqali ruhiy kechinmalarni yanada murakkab va ko‘p qirrali tarzda ifodalashga intilmoqdalar.

Zamonaviy she‘riyatdagi yangicha mavzulardan yana biri bu shaharlashuv (urbanizatsiya) nazariyasidir. Bu haqida Ulug‘bek Hamdam shunday deydi: Shahar bu – odamlarning ham siyosiy-iqtisodiy, ham ma‘naviy-psixologik, umuman, har jihatdan markazlashuvi demakdir. Odamlarning o‘zaro aloqalari tig‘izlashuvi esa o‘z-o‘zidan ijtimoiy munosabatlar sur‘atini belgilaydi. Uzoqqa bormaylik, asrning qoq o‘rtasidan ijodi gurkiray boshlagan birgina Asqad Muxtor poeziyasini olib ko‘raylik. Bu she‘riyat qaysi bir jihatlariga ko‘ra shahar she‘riyati hamdir. Hatto unda tez-tez uchraydigan ayrim iboralar, so‘zlar, xususan, magnitofon, akvarium, spektakl, GES, murvat, gazeta kabilar

ham shaharning matohi, shahar o‘ylab topgan narsalar. Shoirning ushbu she‘riga quloq tuting:

Entikamiz qo‘msab tog‘ni, darani,
Daryo kechalari, qiru o‘r, o‘ngir...
Ammo uzoqlashib borgan orani,
Sezib vahimaga tushadi ko‘ngil.

Uzoqlasha borar mudhish oraliq,
Dimog‘da shaharning isi, tutini.
Akvariumlarda boqamiz baliq,
Qafasga solamiz qumri, to‘tini.[3, B.68].

Shaharlashuv nazariyasiga ko‘ra, zamonaviy lirika qishloq yoki tabiat manzaralaridan ko‘ra ko‘proq shahar muhitini, uning ruhiy ziddiyatlarini aks ettiradi. Shuning uchun lirik qahramonning kechinmalari ko‘pincha shovqinli ko‘chalar, beton binolar, tezkor hayot ritmi, ijtimoiy masofalar fonida tasvirlanadi.

Shaharlashgan lirikada qahramonning ruhiy holati odatda, iztirobli, odamlar ko‘p bo‘lsa ham ruhiy yakkalanish, insonning jamiyatdan yoki o‘zidan uzoqlashuvi kabi ichki ziddiyatlarga boy bo‘ladi. Endi nazariy ma‘lumotimizni misollar tariqasida ko‘rib chiqamiz. Masalan:

Ayol uydan chiqar,
faromushxotir.
Eshikni qulflab yo qulflamay... farqsiz.
Taksi yo avtobus to‘xtar zahoti,
o‘tirar, ketadi qaygadir...
aksi
ko‘rinar avtoning ko‘zgularidan.
Ko‘zlarini olib qochadi,
dunyo
tebranar kirolmay bu achchiq ko‘lga. [4]

Suhrob Ziyo qalamiga mansub ushbu she‘rda ayolning ruhiy holatini tasvirlash uchun shahar muhitidan, elementlaridan foydalanadi va bu kayfiyat o‘quvchiga ham yetib boradi.

Bo‘m-bo‘sh shahar...
Tashvishlarni ortgan tanalar,
Bu tosh yo‘llar zeriktirar hatto bahorni.
Bor og‘riqlar yuragimga kelib qamalar,[4, B.62]

Suhrob Ziyoning ushbu she‘rida ham shaharlashuv nafasi yaqqol seziladi. “Bo‘m-bo‘sh shahar”, “tosh yo‘llar” kabi obrazlar orqali shahar muhiti nafaqat tashqi makon sifatida, balki inson ruhiyatiga ta’sir etuvchi omil sifatida tasvirlangan.

Mehrinoz Abbosovanning ham quyidagi:

Shahar. Uy. Ishxona. Egizak kunlar,

Nuqul vaqt o‘ynatar boshimda qamchi.

Umidim Sizifning toshidek qular,

Ta‘gin chorlayverar dunyo – aldanchi[5]... she’rida shaharlashuv muhiti inson hayotining mexaniklashuvi, takroriyliigi va ruhiy charchoqlari orqali tasvirlanib, umidsizlik va ma’naviy bo’shliq kabi holatlarning ifodalanishi zamonaviy she’riyatdagi mazmun yangilanishining muhim belgisi sifatida namoyon bo‘ladi. Undan tashqari zamona zayli bilan paydo bo‘layotgan texnika, narsa-buyum nomlarining ishlatilishi mazmun yangilanishiga ham turtki bo‘lmoqda. Masalan, Xurshid Abdurashidning quyidagi:

Yana o‘z domiga tortadi qo‘shiq,

munqli MP3lar berar og‘ir his.

Faqat telefonmas, qalbingda jo‘shib,

aylanar “Kuz” nomli ga‘rib pleylist.[6, 26]

An’anaviy she’riyatda ko‘proq tabiat manzaralari, ishqiy kechinmalar hamda ramziy obrazlar gul, bulbul, oy va boshqalar yetakchilik qilgan bo‘lsa, zamonaviy she’riyatda kundalik hayot unsurlari, texnologik vositalar va urbanistik muhit tasviri muhim o‘rin egallay boshladi va an’anaviy obrazlarning o‘rniga “MP3”, “telefon”, “pleylist” kabi tushunchalarning qo‘llanishi badiiy tafakkurning yangilanganligini ko‘rsatadi.

Xulosa. Maqola asosida quyidagi umumiy xulosaga kelish mumkin: 1) zamonaviy o‘zbek she’riyatida mazmun yangilanishi poetik tafakkurning o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lib, unda inson ruhiyati va ichki kechinmalar yetakchi o‘rin egallaydi. 2) shaharlashuv (urbanizatsiya) zamonaviy she’riyatning muhim yo‘nalishiga aylanib, unda shahar muhiti va insonning ruhiy ziddiyatlari badiiy ifodalanadi. 3) zamonaviy she’riyatda yangi ifoda vositalari, texnologik obrazlar va erkin shaklning qo‘llanishi mazmuniy yangilanishning asosiy belgisi sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxat:

1. Hamdam U., Erkin badiiy tafakkur va bugungi o‘zbek she’riyati. – “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi, 2013. 48-son <https://share.google/1kZ5ojaIx7WAUxUqD>
2. Hamdam U., Jahon adabiyoti: modernizm va postmodernizm [Matn]: o‘quv qo‘llanma / – Toshkent: Akademnashr, 2020. – 288 b
3. Hamdam U., Yangi o‘zbek she’riyati/ monografiya, – T.: 2012. – 250 b
4. Ziyoyev S., Ko‘ngil yelkani, – T.: “Zilol buloq” nashriyoti, 2021. – 104 b.
5. Mehrinoz Abbosova “Shahar. Uy. Ishxona. Egizak kunlar” she’ri 08.01.2025 https://t.me/mehrinoz_abbos/267
6. Xurshid Abdurashid, Faqat u qoldi [Matn]: she’rlar / Xurshid Abdurashid. – Toshkent: “Akademnashr”, 2022. – 256 b.